

O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

DSc Umarova Malika

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0006-9895-9288
malika.umarova86@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada banklarni transformatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali bank xizmatlari ommabopligini oshirish, banklarning an'anaviy xizmat ko'rsatishdan raqamli xizmat ko'rsatishga o'tishini amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritib berilgan. Maqolaning tahliliy qismida mamlakatimizdagi mavjud raqamli banklar, mobil ilovalar, to'lov tizimlarining faoliyati, shuningdek, an'anaviy va raqamli banklarning afzal jihatlarini va kamchiliklari o'rganilib tahlil etilgan. Xulosa qismida banklarni transformatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank, raqamli transformatsiya, mobil ilovalar, raqamli platformalar, raqamlashtirish, bank xizmatlari.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ПРОЦЕССЕ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

DSc Умарова Малика

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье проанализированы научно-теоретические основы и практические. В данной статье раскрыты научно-теоретические аспекты повышения доступности банковских услуг в процессе трансформации банков за счет развития цифровых технологий, а также перехода банков от традиционного обслуживания к цифровому формату. В аналитической части статьи изучены и проанализированы деятельность существующих в нашей стране цифровых банков, мобильных приложений, платежных систем, а также преимущества и недостатки традиционных и цифровых банков. В заключительной части разработаны предложения и рекомендации по развитию цифровых технологий в процессе трансформации банков.

Ключевые слова: банк, цифровая трансформация, мобильные приложения, цифровые платформы, цифровизация, банковские услуги.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL BANKING SERVICES IN THE PROCESS OF BANK TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN

DSc Umarova Malika

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article presents the scientific and theoretical aspects of enhancing the accessibility of banking services in the process of bank transformation through the development of digital technologies, as well as the transition of banks from traditional to digital service formats. In the analytical section, the activities of existing digital banks, mobile applications, and payment systems in our country are examined and analyzed, along with the advantages and disadvantages of traditional and digital banking. In the conclusion, proposals and recommendations were developed regarding the advancement of digital technologies in the process of bank transformation.*

Keywords: *bank, digital transformation, mobile applications, digital platforms, digitalization, banking services.*

Kirish.

Banklar mijozlarning ehtiyojlarini o'rganish orqali ular bilan samarali va natijaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishi, bank-mijoz munosabatlarining dolzarb modellarini shakllantirishi, xizmat ko'rsatish sifatidagi zaif jihatlarni chuqur tahlil qilishi hamda mijozlar uchun qulay va maqbul bank siyosatini amalga oshirishi muhim sanaladi. Bu masala 2020-yil 12-mayda qabul qilingan PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda (2020) ham alohida qayd etilgan "banklarning kapitallashuvini oshirish, davlat ulushini bosqichma-bosqich xorijiy investorlarga sotish orqali kamaytirish, bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda, qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish" (Farmon, 2020) yordamida banklarda moliyaviy ommaboplikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Kredit tashkilotining moliyaviy natijalari, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga investitsiyalarni jalb qilish salohiyati hamda mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlar spektrini kengaytirish, birinchi navbatda, mablag'larni jalb qilish mexanizmlari, ularning muddati va qiymati, shuningdek bankning o'z mablag'lari hajmi hamda resurs bazasining tarkibiy tuzilishiga bevosita bog'liqdir.

Boshqacha aytganda kapitallashuv holatiga bog'liqdir. Hozirgi iqtisodiyotning "raqamlashuvi" sharoitida internet va axborot kommunikatsion texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi natijasida bank tizimida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish jadallashib ketdi. Demak bugungi axborot texnologiyalari iqtisodiyotning ajralmas muhim qismi bo'lib borayotgan davrda bank sektori kapitallashuvini oshirishni internet va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

So'nggi o'n yil ichida texnologik salohiyatni oshirishga qaratilgan bank tizimini o'zgartirishda raqamlashtirish jarayonining rolini o'rganish ilmiy munozaralarga sabab bo'ldi. Tadqiqotchilar bank sektoriga innovatsiyalarni joriy etishning muhimligi va ahamiyatini, keyinchalik milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'sirini baholadilar.

Bank sohasini raqamlashtirish banklarga mijozlar guruhlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda mijozlarga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishga va bank mahsulotlari taklifini iste'molchilarning individual so'rovlariga muvofiq imkon qadar ko'proq

yo'naltirishga imkon beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish vaqt va joydan qat'i nazar, eng qulay va shaffof bank xizmatlarini yaratishga, shakllangan bank xizmatlari sifatining o'sishi hisobiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bank sektorining bunday rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, bank muhitida raqobat oxir-oqibat eng qulay va mijozlarga yo'naltirilgan bank mahsulotlarini shakllantirish fonida kuchayadi.

Zamonaviy sharoitda bank faoliyatini o'zgartirish va raqamlashtirish muammolariga doir tadqiqotlar olib borgan Serebrennikova, Sokolinskaya (2020) "transformatsiya davrining murakkabligini qayd etib, bank amaliyotida modernizatsiya va innovatsiyalar zarurligini ta'kidlaydilar. Bunday transformatsiya bank sektori tomonidan unga xos bo'lgan risklarga e'tiborning kuchayishi bilan birga keladi". Xorijiy mualliflar Ma, Meng, Yang, Vang (2019) "raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (sanoat, moliya sektori, davlat xizmatlari sektori) ta'sirini ko'rib chiqadilar. Xitoyda raqamli transformatsiyaning mamlakat o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydilar". Raqamli transformatsiya sharoitida biznes modellarini transformatsiya qilish masalasi Vayl va Uorner (2019) ishlarida o'rganilgan". Xorijiy mualliflarning ishlari bank faoliyatini o'zgartirishning zamonaviy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi moliya tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarida bir qator umumiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi va xorijda axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan barcha mamlakatlar uchun umumiy muammolarni aniqlashga imkon yaratadi.

Leyton, Gurvits, Nyugent, Xalper, Kaufman (2015) asarlarida esa "Texnik o'zgarishlar muqarrar ravishda kredit tashkilotlari faoliyati uchun tartibga solish muhitidagi o'zgarishlar bilan o'zaro bog'liqdir" deya ta'kidlangan. O'zbekistonlik iqtisodchi olim, Jumayev (2015) "Raqamli iqtisodiyotda IT yordamida tannarxni kamaytirishga, natijada optimallashtirish va samaradorlik oshishiga erishiladi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda ilmiy sig'imdorlik yuqori bo'lgan tarmoqlar ravnaq topishini ta'kidlaydi".

ham rivojlanib borayotgani va ushbu tizimga to'liq o'tish hozircha ertaroq bo'lsa-da, keyingi 3-5 yil ichida amalga oshishi muqarrar ekanligini ta'kidlaydi". Samsonova (2012) yondashuviga ko'ra esa "bank sektoridagi kuchli raqobat sharoitlarida yashab qolish zaruriyati ayniqsa jismoniy shaxslar iste'mol madaniyati o'sishi sharoitida banklarga o'z shartlarini qo'yimoqda. Bunday holatda o'z mijoziga masofaviy xizmat ko'rsatuvchi banklar yaqqol ustunlikka ega bo'ladilar. Raqobat kurashida o'z faoliyatini bank biznesi va zamonaviy axborot texnologiyalari yangi talablariga muvofiq butunlay qayta quradigan banklargina g'olib chiqadilar".

So'ngi yillarda bank-moliya sohasida "raqamli banklar" instrumentlaridan foydalanish ham keng tarqalmoqda. "Raqamli banking" bu bank xizmatlari internet orqali amalga oshiriladigan onlayn bank tizimiga o'tishdir.

Iqtisodchilar Dolgushina va Poltoradneva (2016) o'tkazgan tadqiqotlar "bank xizmati raqamli modelining asosiy xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Unga ko'ra aytilgan raqamli modelda pul massasi aylanishining ustuvor shakli sifatida naqdsiz pul aylanishi keltiriladi".

Raqamli bank xizmati o'ziga xos bir qator xususiyatlarga egadir:

- Pul massasi aylanmasining ustuvor shakli sifatida naqdsiz hisob-kitoblar ko'zda tutilib, mijozlar bilan elektron aloqa mexanizmlarini maksimal darajada rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi;

- autentifikatsiya usullarida fizik elektron vositalar, parollashgan biometrik texnologiyalar hamda ularning kombinatsiyalashtirilgan shakllaridan foydalanish orqali bank xizmatlarining xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

- mamlakat miqyosida internet orqali markazlashgan ma'lumotlar markazini shakllantirish va uni Big Data instrumentlari orqali qo'llab-quvvatlash raqamli IT-arxitektura hamda ma'lumotlarni boshqarish tizimini optimallashtirishga xizmat qiladi.

- avtomatlashtirish bo'limlarining shakllanishi va kengayishi, shuningdek boshqa bo'limlar yuklamasining kamayishi orqali bank xizmatlari jarayonida avtomatlashtirishning ahamiyati oshib borayotgani kuzatilmoqda.- mijoz bilan o'zaro aloqada ijtimoiy media, veb-dasturlar, videoaloqa shakllaridan keng foydalanish.

Moliyaviy xizmatlarni raqamli asosda taqdim etish jarayonida xavfsizlikni oshirish masalasi dolzarb bo'lib, shu munosabat bilan bank xizmatlaridan masofaviy foydalanayotgan mijozlarni autentifikatsiya qilishda zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Jumladan, foydalanuvchini aniqlash va tekshirish jarayonida statik (oldindan belgilangan ma'lumotlarga asoslangan) va dinamik (operatsiya vaqtida generatsiya qilinadigan kodlar yoki biometrik indikatorlar asosidagi) metodlar qo'llanilib, axborot xavfsizligi va tranzaksiyalar ishonchligini ta'minlash choralari ko'riladi. Bu jarayon bank xizmatlari sifatini oshirish va firibgarlik xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli, obyektivlik tamoyili, kuzatish, qiyosiy tahlil, usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Bugungi kunda tijorat banklari o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi xizmat turlarini yaratish hamda xizmat ko'rsatish tannarxini pasaytirish maqsadida yangi imkoniyatlar izlashga intilmoqda. Shu yo'nalishda banklar o'z strategiyalarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etmoqda. Ba'zi banklar ofis va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, shu jumladan, an'anaviy operatsiyalarni masofadan boshqarish imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalar yordamida kengaytirishga e'tibor qaratsa, boshqalar esa xizmat ko'rsatish jarayonlarini to'liq onlayn shaklda yo'lga qo'yishni afzal ko'rmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 44 ta to'lov tashkilotlariga litsenziya berish amaliyoti davom ettirildi. Bugungi kunda aholi orasida nafaqat banklar, balki to'lov tashkilotlariga ham talab ortib bormoqda. To'lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi joriy yilda 333 trln.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan.

Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan to'lov tashkilotlarining xizmatlaridan foydalangan holda kommunal xizmatlar uchun – 26,2 trln so'm, mobil operatorlar xizmatlari uchun – 14,8 trln so'm, davlat xizmatlari uchun – 14,3 trln so'm, kredit to'lovlari uchun – 5,7 trln so'm, byudjet va soliq to'lovlari uchun – 5,3 trln so'm mablag' o'tkazilgan.

Umumiy hisobda jismoniy shaxslar tomonidan ushbu yo'nalishlarda to'lov tashkilotlari orqali 34,8 trln so'm miqdorida to'lov amalga oshirilgan. Shuningdek, 2023-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni qariyb 1,5 barobarga ortib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 44,1 million nafarga yetdi. Shu jumladan, ularning 1,3 million nafari tadbirkorlik subyektlari, 42,8 million nafari esa jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi"¹.

¹ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqqnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>



**1-rasm. To'lov tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan to'lovlar
maqsadlari bo'yicha tarkibi**


Manba: cbu.uz Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bugungi kunda banklar va to'lov tizimlari raqamli ofis imkoniyatlarini kengaytirmoqda hamda mijozlar uchun yanada rivojlangan raqamli xizmat turlarini ko'lamini kengaytirmoqda. Bu esa mobil bank ilovalarining nafaqat oddiy tranzaksiya vositasi sifatida foydalanish, balki ko'p funksionali platformaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, mobil bank ilovalarida qo'shimcha xizmatlarni joriy etish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Jumladan, avtosug'urta xizmatining ommalashishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. "Mening avtomobilim" bo'limi tobora kengayib, hozirda mazkur bo'lim orqali nafaqat jarimalar to'g'risida xabarnomalar olish, balki joriy ishonchnomalar holatini kuzatish, avtomobilga doir qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish va avtosug'urta polisini rasmiylashtirish ham mumkin bo'lib qoldi.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari bilan integratsiyalashuv jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Endi ma'lumotnomalarni rasmiylashtirish, shuningdek, turli davlat xizmatlaridan foydalanish bevosita mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilish imkoni mavjud.


Ushbu imkoniyatlar hozircha faqat ayrim tijorat banklari tomonidan joriy etilgan va asosiy funksional darajasida bo'lgani sababli, baholash tizimida to'liq inobatga olinmagan. Aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekistonda faoliyat yurituvchi banklarning mobil ilovalari orqali davlat xizmatlaridan foydalanish, ma'lumotnoma olish yoki avtosug'urta rasmiylashtirish imkoniyatini taklif etmagan. Ammo 2024-yilga kelib bu borada siljish kuzatilmoqda — har ikkala yo'nalishda ham to'rttadan bank ushbu funksiyalarni amaliyotga tatbiq etgan. Bu esa mamlakatda raqamli bank xizmatlarining funksional jihatdan kengayib, aholi uchun qo'shimcha qiymat yaratayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda Markswebb tomonidan banklarning raqamlashganlik holati reytingi ishlab chiqildi. Ushbu reytingga ko'ra tijorat banklarining mobil ilovalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar tahlili e'lon qilindi. Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra masofadan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalangan xolda to'lov amaliyotlarini amalga oshirishda eng yuqori darajasi 56,2 foiz bank mijozlari Uzumbank mobil ilovasidan foydalangan bo'lsa, 40 foizini Infinbank mijozlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. To'lov ilovalaridan Click to'lov tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar 53,7 foizni tashkil etmoqda.



2-rasm. 2024-yilda Mobil banklar va to'lov ilovalarining reytingi

Manba: https://markswebb.com/research/mobile-banking-rank-uzbekistan-2024/?utm_source=chatgpt.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu reyting O'zbekistondagi eng mashhur 13 ta mobil bank ilovalari va to'lov ilovalari orasida bank xizmatlarda O'zbekiston aholisi mobil telefon orqali to'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshirishi, shuningdek, moliyaviy mahsulotlar holatini kuzatib borishi mumkin.



3-rasm. 2024-yilda O'zbekistondagi Mobil banklar reytingi

Manba: https://markswebb.com/research/mobile-banking-rank-uzbekistan-2024/?utm_source=chatgpt.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu reyting faqat mobil bank ilovalarini qamrab olib, ular foydalanuvchilar bajaradigan 16 ta asosiy funktsiya bo'yicha o'zaro taqqoslangan. Baholash mezonlari asosan tranzaksiyon operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, to'lovlar, pul o'tkazmalari, mahsulotlarni boshqarish hamda mobil bank ilovalari yordamida, bank mahsulotlarini masofaviy rasmiylashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Baholash natijalari mobil ilovadagi raqamli tajribaning sifatini aks ettiradi. Bu yerda mavjud funktsiyalar soni, ulardan foydalanish qulayligi va texnik barqarorlik kabi ko'rsatkichlar inobatga olingan.

Baholash natijalari mobil banklar va to'lov xizmatlari uchun dolzarb bo'lgan tranzaksiyon faoliyatga oid 13 ta vazifa bloki bo'yicha qiyosiy tahlilga asoslangan holda raqamli mijoz tajribasining sifati aks ettirilganini ko'rsatadi.

Uzum Bank 53,9 ball bilan yetakchilik qilmoqda. U to'lov imkoniyatlari va mijozlarni qo'llab-quvvatlash sohasida yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Shu bilan birga, ushbu bankda omonatlarni avtomatlashtirish va moliyaviy xizmatlar haqida batafsil ma'lumot taqdim etish borasida imkoniyatlar yetarli darajada emas.

"Ipak Yo'li" banki 51,5 ball bilan ikkinchi o'rinni egalladi. U pul o'tkazmalari bo'yicha turli ssenariylar va to'lovlarni rejalashtirishning ishonchli funksiyalarini taklif qilmoqda. Biroq, tranzaksiyalar tarixi bo'yicha axborotni izlash va navigatsiya qilishda ayrim muammolar mavjud. Agrobank 50,5 ball bilan uchinchi o'rinni band etdi. Bank yangi mijozlarni qo'llab-quvvatlash va ularni tizimga jalb etish borasida yaxshi natijalarga erishgan. Ammo pul o'tkazmalari va debet kartalarni boshqarishda kompleks yechimlar yetishmaydi.

1 -jadval

An'anaviy va raqamli banklarning solishtirma tahlili

Ko'rsatkichlar	TBC bank	O'zsanoatqurilishbank
Bank turi	Raqamli	An'anaviy
Mobil ilova reytingi (2024)	90.26 ball	114.72 ball
Strategiyasi	Fintech-innovatsiyalar, onlayn xizmatlar	Klassik bank xizmatlarini raqamlashtirish
Asosiy mijozlari	18-45 yoshgacha bo'lgan mijozlar	Barcha toifadagi mijozlar yuridik va jismoniy shaxslar
Mijozlar soni	2024-yilda ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni 19 mln. tani tashkil etdi.	2024-yilda kichik va o'rta biznes vakillari 23000 ta, Korporativ mijozlar soni 11700 taga yetgan
Yo'nalishi		
Kredit ajratish	Onlayn, mikrokredit va BNPL	Onlayn va oflayn kreditlar
Bank kartalari	Masofaviy kartalarga buyurtma berish va virtual kartalarni yaratish	An'anaviy va raqamli kartalarni filial orqali buyurtma berish
Omonat va jamg'arma	Jamg'arma funksiyasi mavjud emas	Omonat va jamg'arma turlari keng, raqamli interfeys yordamida ham ochish mumkin
Davlat xizmatlariga integratsiyasi	To'lovlar, jarimalar, kommunal xizmatlar	Davlat xizmatlariga integratsiyasi kengaymoqda
Qo'llab quvvatlash	24/7 onlayn chat-bot va operator	Mobil ilova va onlayn xizmatlar
Innovatsiya Faoliyat	Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik, QR, NFC orqali to'lovlarni amalga oshirish	Raqamlashgan va korporativ bank xizmatlari

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan raqamli va an'anaviy banklarni ish faoliyatini tahlil etar ekanmiz, banklarning xizmat ko'rsatish faoliyatini tahliliga ko'ra, raqamli banklar mijozlar bazasining davlat banklariga nisbatan bir necha barobar yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, kredit, jamg'arma va depozitlar, valyuta ayirboshlash operatsiyalar kesimida tahlil etadigan bo'lsak bu boradi O'zsanoatqurilishbankida yuqori rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zsanoatqurilish banki korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yetakchi banklardan biri hisoblanib, bank xizmatidan mijozlarning qoniqish darajasi 86,8 foizni tashkil etib, bu o'rtacha ko'rsatkichlardan biroz yuqori.

Kredit ajratish jarayonlari an'anaviy banklarda mobil ilovalar orqali rasmiylashtirish jarayonlarida o'rtacha 24 soatni tashkil etsa raqamli banklarda ijobiy holatlarda o'rtacha 15 daqiqani, mijozning to'lovga layoqatligini baholagan xolda rad etish holatlari 5 daqiqani tashkil etmoqda. TBC bankda to'lovlarni amalga oshirishda QR, NFC kodlar orqali to'lovlarni

amalga oshirilsa, O'zsanoatqurilishbankda raqamli va an'anaviy xizmat turlaridan keng foydalanilmoqda.

An'anaviy va raqamli banklarda kredit olish jarayonini o'rganar ekanmiz ushbu jarayonning raqamli banklarda ustunligi, kredit olishning umumiy vaqtini 15 daqiqa tashkil etishi, ortiqcha xat hujjatlarni talab etmasligi, mijoz kreditni masofadan turib rasmiylashtirish imkoniga ega bo'lsa, kamchiligi sifatida frod holatlarini yuzaga kelishi, boshqa shaxsning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalangan xolda kreditni rasmiylashtirish kabi holatlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayonida Fin Tech kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi, yangi zamonaviy xizmat turlaridan foydalanishi banking moliyaviy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda bank sohasi so'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va qo'llab-quvvatlash siyosati tufayli barqaror rivojlanib bormoqda. Xususan, davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, bank kapitali va infratuzilmasini kengaytirish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Zaif tomonlari sifatida banklar o'rtasida raqamli texnologiyalarni joriy qilishda notenglik kuzatiladi: ayrim tijorat banklarida eski dasturiy ta'minot va infratuzilmaning to'liq modernizatsiya qilinmagani ularning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qiladi. Iqtidorli IT mutaxassislar yetishmovchiligi, ichki kadrlar salohiyatining yetarli emasligi va innovatsiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslar yetishmasligi kamchiliklar sifatida qayd etiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston bank tizimida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, FinTech kompaniyalari va innovatsion startaplar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish imkoniyati mavjud. Milliy to'lov tizimlarini xalqaro platforma bilan integratsiya qilish orqali xizmatlar turini kengaytirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, bank xizmatlari qamrovini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbolli yo'nalishlar sifatida qaraladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarida innovatsion xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish banklarni transformatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv va muayyan usullarni talab qiladi. Ya'ni banklarni transformatsiyalashning aniq strategiyasini ishlab chiqish innovatsiyalar uchun maqsadlar, ustuvorliklar va harakat rejalarini belgilashni talab qiladi hamda transformatsiyalash jarayonida quyidagilarni inobatga olish muhim hisoblanadi:

1. Fintex kompaniyalari va innovatsion startaplar bilan strategik hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali moliyaviy xizmatlar sifati va ko'lamini oshirish zarur.

2. Bank tizimi xodimlari malakasini oshirish, ularning zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, fintech va raqamli moliya sohasi bo'yicha ilg'or bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida muntazam malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish orqali salohiyatini oshirish darkor.

3. Mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirishda ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) va prognoz modellaridan samarali foydalanish orqali mijozlarning ehtiyoj va istaklarini aniqlash hamda ularga moliyaviy xizmatlar taklif etish maqsadga muvofiq.

4. Banklar tomonidan innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektni qo'llash orqali mijozlarga individuallashtirilgan xizmatlar taklif etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mijozlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlar taklif etish imkonini yaratadi.

5. Banklar transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, mijozlar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish uchun zamonaviy kiberxavfsizlik yechimlarini qo'llashi kerak.

6. "Raqamli bank"lar sonini oshirish, istiqbolli innovatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy etish, telekommunikatsiya infratuzilmasi va texnik vositalar kompleksini takomillashtirish hamda sotuvning elektron kanallarini rivojlantirish lozim.

Ushbu strategik islohotlar milliy bank tizimining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash bilan birga, xorijiy investorlarga nisbatan ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Designing a sustainable digital bank" Learning from the digital pioneers-IBM Sales and Distribution White Paper Executive Summary// Copyright IBM Corporation 2015-p.3.
<https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidi>.

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Вайл П., Ворнер С. (2019) Цифровая трансформация бизнеса. -М.: Сбербанк; Алпина Паблишер, 215.

Гурвис Дж.С., Нюджент А.Ф., Халпер Ф., Кауфман М.А. (2015) Просто о больших данных. -М.: Эксмо, - 400 с.

Долгушина А.Я., Полтораднева Н.Л. (2016) Цифровая модель банковского обслуживания // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета, №6(256), с. 206-218.

Ма Х., Мен Ч., Ян Д., Ван Х. (2019) Цифровая трансформация Китая. -М.: Алпина Паблишер, -249 с.

Самсонова Л.А. (2012) Дистансионное банковское обслуживание //Философские проблемы информационных технологий и киберпространства, №2(4), с. 81-91.

Серебренникова А.И. (2020) Сущность и проблемы внедрения инновации в банках. / /Банковское дело. № 1. С. 68–73. Цоколинская Н.Э. Механизмы информационного и науко-технологического обеспечения инновации в банковской сфере в условиях цифровой экономики. //Банковское дело. № 2. С. 25–30.